

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM SIFATINI BAHOLASH TIZIMLARI:
XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YUTUQLAR**

Boboxonova Nigora Yusupovna

Navoiy Davlat Universiteti San‘at va sport fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi 1-kurs magistranti

Davlatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida izchil va jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda kelajak bunyodkorlari bo‘lgan yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorlik salohiyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi, shuningdek, Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi muhim amaliy qadam sifatida e‘tirof etiladi.

Qariyb 60 yildan ortiq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta‘limni qiyosiy tadqiq etish sohasida yetakchi xalqaro tashkilotlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu tashkilot davlat siyosati va ta‘lim amaliyotining ta‘lim sifati va samaradorligiga ta‘sirini chuqur tahlil qilish maqsadida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi. Mazkur tadqiqotlar ta‘lim jarayonlari va natijalarini qiyosiy o‘rganish asosida ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

1958-yildan buyon IEA tomonidan matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o‘qish savodxonligi (PIRLS), fuqarolik ta‘limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo‘nalishlarda o‘ttizdan

ortiq xalqaro qiyosiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashga qaratilgan.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, milliy baholash tizimini qiyosiy tahlil qilish, xalqaro tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda xalqaro loyihalarni amalga oshirish zamonaviy ta'lim siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturi reytingida dunyoning yetakchi 30 mamlakati qatoriga kirish vazifasi belgilangan. Mazkur hujjatda o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholashga qaratilgan milliy baholash tizimini yaratish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

PISA (Programme for International Student Assessment) dasturi 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini, shuningdek, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholashga qaratilgan xalqaro tadqiqot dasturidir. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Har uch yilda bir marotaba o'tkaziladigan PISA tadqiqoti mamlakatlarga ta'lim tizimidagi yutuq va muammolar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar berib, ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

PISA tadqiqotining o'ziga xos jihati shundaki, unda an'anaviy bilimlarni yod olish emas, balki o'quvchining funksional savodxonligi, muammolarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish layoqati baholanadi.

TIMSS dasturi esa 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini o'quv dasturlari asosida baholashga qaratilgan bo'lib, PISA dasturidan farqli ravishda maktab fanlariga yo'naltirilgan baholash tizimini ifodalaydi.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, o'quv materiallarining sifat darajasi hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash, metodik ta'minotni takomillashtirish hamda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy etish zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, yosh avlodni zamonaviy kompetensiyalar bilan qurollantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida milliy ta'lim siyosatini takomillashtirish, o'quv dasturlarini yangilash va pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997- sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997- sonli qarori.
4. Matchonov S. va boshqalar. O'qish kitobi. 4- sinflar uchun darslik. – Toshkent. Yangiyo'l polygraph service. 2020. 216b

ilmiy –amaliy anjuman

5. Ina V.S.Mullis va Michail O. Martin. PIRLS - 2021 baholash qamrov doirasi. Toshkent. Ta'lim sifatini baholash o'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi matbaa bo'limi. 2021. 97 b
6. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent. «Sharq» nashriyotmatbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. 2019. 92 b.
7. Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021-yil 1-2-aprel. Buxoro-2021. -290 b.